

**XALQARO MIQYOSDA TA'LIMDA INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASHNING
NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI****Zairov Asadbek***Toshkent davlat yuridik universiteti tadqiqotchisi*

Yer sayyorasi va insoniyat taqdirini belgilab beruvchi asosiy omil bu inklyuziv ta'limdir. Ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash bu butun insoniyat hamjamiyatini keng miqyosda ta'lim bilan qamrab olish va har bir insonning bilim olishi orqali o'z o'rnini va rolga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'lumki, yer planetasi deb atalmish ijtimoiy-siyosiy makonda insonlarning ijtimoiy holati, iqtisodiy imkoniyati, aqliy qobiliyati turlidir.

Shuning uchun, har bir ta'lim oluvchiga individual yondashuvni talab etadi. Bu esa inklyuziv ta'limning ahamiyatini oshirib, uning muhimligini ko'rsatadi. Chunki qamrovi jihatdan barchani qamrab oladigan inklyuziv ta'lim har bir insonning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirilgan ta'lim shaklidir.

Inklyuziv ta'lim masalasini tadqiq qilgan ayrim olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini kuzatadigan bo'lsak, antropologik yondashuvni pedagogik sohaga tadbiq qilish orqali har bir insonni bilim olish masalalariga katta e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun XX asrning birinchi choragida eng yirik rus olimlarining nazariy va amaliy faoliyatida ishlab chiqilgan pedagogik antropologiya g'oyalari K.D. Ushinskiy "Inson ta'lim subyekti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi" (birinchi jild 1868-yilda nashr etilgan) (Ushinskiy, 1945). Ushinskiyning g'oyasi "insonni har tomonlama tanib olish orqaligina uni har tomonlama tarbiyalash mumkin" degan g'oya edi.

Bu fikr o'tgan asrdagi tadqiqotlarda o'z ifodasini topdi.²⁰ Aslini olib qaraganda inson taqdirini belgilab beruvchi asosiy omil uning hayoti va faoliyatining mazmunini ifodalovchi tushuncha bu ta'limga egaligidir. Bu yer yuzida ongli hayot boshlangandan buyon aks etadi. Faqat Ushinskiyning qarashlariga ko'ra ta'lim orqali insonni har tomonlama hayotga tayyorlash bu o'tgan asrning tadqiqotlarida ko'ringan bo'lishi mumkin.

Bu esa insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmaganligi va yetarlicha tadqiq qilinmaganligi kabi haqli savollarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, yana bir rus olimi, psixiatri, nevrolog, fiziolog, psixolog Bexterev (1907) fanlararo o'zaro ta'sirga asoslangan holda "Shaxsni uning yaxlitligida ko'rib chiqish" g'oyasini amalga oshirdi.

U insonni o'rganishga kompleks yondashuv tarafdori edi. V.M.Bexterevning muhim g'oyasi shundan iborat ediki, faqat individual inson xulq-atvorini tahlil qilib bo'lmaydi, uning xulq-atvorining boshqa odamlarning xatti-harakatlari bilan bog'liqligini tekshirish kerak. Ushbu tafakkurga ko'ra, o'zaro munosabatlarning keng

²⁰ Ushinsky, K. D. (1945). Selected pedagogical works/Person as a subject of educational process (p. 475).

doirasini (nogironligi mavjud bola - sog'lom tengdoshlar, bola - ota-ona, o'qituvchi - bola, nogironligi mavjud bolaning ota-onasi - sog'lom bolalarning ota-onalari va boshqalar) ob'ektiv ravishda o'rganish kerak. Nogiron bolalarning xulq-atvorini ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan aloqasini o'rganish orqali faqat inklyuziv ta'limning "maxsus" o'qitish tizimini o'rganishga kompleks yondashuvni amalga oshirish mumkin.²¹ Bexterevning fikrlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy holatidan qat'i nazar hat bir inson jamiyatning bir a'zosi sifatida jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqeliklari bilan o'zaro aloqador bo'lishi kerak. Aynan shunday qarashlar jamiyatda inklyuziv muhitning shakllanishiga ilmiy asos yaratadi. Chunki obyektiv tarzida imkoniyati cheklangan insonning teng munosabatlar doirasiga qo'shila olishini o'rganish bu ijtimoiy tengsizlik kayfiyatini yo'qotishga turtki bo'ladi. Boshqa rus olimi Sikorskiy (1842-1919 yillar) bu birinchi rus olimlaridan biri bo'lib, aqliy va jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha birinchi antropologik tadqiqotni amalga oshirgan. Olimlar rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan odamni tibbiy, psixologik va pedagogik jihatdan o'rganishga katta e'tibor berishdi. U birinchi bo'lib maktablarda o'quvchilarning aqliy faoliyatini nazorat qilishning eksperimental usulini qo'llagan (Sikorskiy, 1882). Bu usulning asosiy jihati shundaki, u o'quvchilarning o'quv jarayonida ularning aqliy mehnatini kuzatishi mumkin edi va u keyinchalik o'quvchilarning aqliy faoliyatini kuzatishning asosi bo'ldi. Bugungi kunda Sikorskiyning g'oyalari barcha bolalarni, hatto o'rgatib bo'lmaydigan deb hisoblanganlarni ham o'qitishni o'rganish uchun juda muhimdir.²² Chunki eksperimental pedagogika har bir ta'lim oluvchiga moslashtirilgan bilim berish standartini tajriba natijasida shakllantiradi. Tajriba esa amaliyotga to'liq qo'llashdan avvalgi muhim sinov maydonidir. Shuning uchun Sikorskiyning o'qitish jarayonlaridagi kuzatishlari ma'lum bir ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, lekin bu masalani mohiyatini to'laqonli ochib bermaydi. Chunki imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarni faqat o'qitish jarayonida kuzatish yetarli emas. Misol uchun imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini ham kuzatish, ya'ni ularni kutubxonalarda, hatto uy sharoitida bilim olish jarayonlari ham muhimdir.

G.Y.Troshinning (1874-1938 yillar) fundamental asari "Ta'limning antropologik asoslari. Oddiy va g'ayritabiiy bolalarning qiyosiy psixologiyasi" 1915- yilda nashr etilgan. Tadqiqotchi insonning fiziologik, psixologik va ijtimoiy tabiatini tarbiyalash uchun foydalanilmagan resurslarni topish zarurligini himoya qiladi. G.Y.Troshin (1915) nogironligi mavjud bolalar bilan ishlash amaliyotida bolaning nuqsoniga emas, balki kasallik ta'sir qilmaydigan salohiyatiga e'tibor qaratish kerak, degan gipotezani taqdim etdi. Zamonaviy o'qitish amaliyotida ushbu taxminning nomi aqliy zaif bolalar bilan ishlashda ta'lim standartlari talablarini amalga oshirish uchun qimmatli manba bo'lishi mumkin. 2016- yilda Rossiyada bu ishni keng ko'lamda amalga oshirish boshlanadi. Troshin ilgari surayotgan gipoteza ya'ni nogironligi mavjud bo'lgan bolaning nuqsonlaridan kelib chiqib emas uning kasalligi

²¹ Bekhterev, V. M. (1907). Objective psychology. Saint-Petersburg.

²² Sikorskiy, I. A. (1882). About difficult children in the educational aspect (p. 7). Kiev.

ta'sir qilmaydigan salohiyatiga e'tibor qaratishning ahamiyati shundaki, bu har bir insondagi yashirin istedodlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ayni har bir insonni qobiliyatini amalda namoyon qila olish bu inklyuziv yondashuv bilan ta'minlanadi. Shuning uchun ham inklyuziv ta'lim ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi.

Atrof-muhit va shaxsning o'zaro ta'siri muammosi S.T.Shatskiy (1878-1934 yillar) asarlarida o'z aksini topgan. U bolaning shaxsiy tajribasini rivojlantirish yo'lidagi ko'plab to'siqlarni bartaraf etishda maktabning "qulay muhiti" ning rolini ta'kidladi. Asosiysi, jamiyatda bolalar uchun alohida pedagogik yordamga aylanadigan qulay omillarni yaratish zarurati. Shatskiy (1962) bolalarning boy hissiy va ruhiy hayotini yaratishda maktab muhitining alohida rolini ko'rdi. U maktab hayotining ijtimoiy tomoniga ishora qildi, uni tushunish bolaning muloqotidagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. S.T.Shatskiyning inklyuziv ta'lim nazariyalari bilan bog'liq bo'lgan g'oyalari izchilligini ta'kidlash kerak, ular sog'lom bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish ikkalasining ham ijtimoiy rivojlanishining muhim sharti ekanligini isbotlaydi.²³ Shatskiyning fikrlari bu maktabda barqaror ijtimoiy muhit shakllantirish orqali jamiyatda to'siqsiz muhitning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu borada ta'lim olishga ma'lum bir qiyinchilik sezayotgan kishilar uchun zarur qulayliklarni yaratadigan pedagogik omillarni aniqlash va boyitish to'g'risidagi fikri to'g'ri yondashuvdir. Tahlil qilib o'tilgan ushbu rus olimlarining ilmiy- nazariy qarashlari olib borilgan tadqiqot ishlari asosida o'ziga xos ahamiyatga egadir. Bu esa inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun ilmiy asoslar va takomillashtirish omillarini yaratadi. Shuni alohida aytish kerakki, inklyuziv ta'lim bu avvalo umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan inson huquqlari masalasidir. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim olish bu har bir insonning huquqidir. Shu nuqtai nazardan ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash to'g'risidagi huquqiy qarashlarni kuzatadigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin.

Xususan, barcha o'quvchilar uchun sifatli natijalarni ta'minlaydigan va hech kimni istisno qilmaydigan ta'lim tizimlari - odatda o'qituvchilar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Biroq, ta'lim olish huquqi insonning umume'tirof etilgan asosiy huquqlaridan biridir. Inklyuziv ta'limni inson huquqlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish qanday oqibatlariga olib keladi? "Barcha uchun ta'lim" va Mingyillik rivojlanish maqsadlari (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti – YUNESKO, 2013 yil) boshlanganidan beri ta'limdan chetlashtirilgan bolalar soni kamayib borayotganiga qaramay, ayrim bolalar, masalan, nogironligi mavjud bolalar va etnik ozchilik bolalari - nomutanosib ravishda maktabdan chetlashtiriladi (Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi - UNICEF, 2013). Bundan tashqari, ko'pincha, agar ushbu guruhlarning bolalari maktabda bo'lsa, ular maxsus sharoitlarda ajratiladi, oddiy o'quv dasturiga kirish imkoniyatidan mahrum qilinadi va asosiy tizimdagilardan alohida saqlanadi (Inclusion International, 2009). Shunga qaramay, inklyuziv ta'limni inson huquqlari

²³ Shatsky, S. T. (1962). Pedagogical works. T.№ 1. Academy of sciences of RSFSR.

masalasi sifatida ko'rib chiqish o'qituvchilar va ko'pincha inson huquqlari himoyachilari uchun qiyinchilik tug'diradi. Ko'pchilik inson huquqlarining buzilishining ayrim turlarini va ularni himoya qilish usullarini, masalan, erkinlik foydasiga qullikni bekor qilish yoki qiynoqlarga barham berishni oson tushunishadi. Biroq, inklyuziv ta'limni inson huquqlari masalasi sifatida tushunish qiyinroq.²⁴ Bu esa demokratik qadriyatlarning eng yuqori ko'rinishi bo'lgan ijtimoiy holatidan qat'i nazar har bir insonning ta'lim olish huquqi sira buzilmasligi va kamsitilmasligi lozim. Global dunyoda bir-biridan ajratish nogironlik belgilariga ko'ra alohidalash, norozilik va tengsizlik kayfiyatining oshishiga turtki bo'ladi. "Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi" va turli konvensiyalar hamda jahon mamlakatlarining asosiy qonunlarida barcha insonlarni tengligi to'g'risidagi normalar amalda o'z aksini to'laqonli topishiga zaruriyat tug'dirmoqda. Chunki bugungi dunyoda paydo bo'lgan turli ijtimoiy muammolar iqtisodiy qiyinchiliklar va kelajakni tashvishga solayotgan masalalarning yechimi bu inklyuziv ta'limdadir. Chunki ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash bu global miqyosda tenglikni ta'minlashdir. Shuning uchun inklyuziv ta'lim to'g'risidagi xalqaro va milliy darajadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini boyitish amaliyotini takomillashtirish masalalariga chuqur yondashish zarur. Chunki ta'lim olish har bir insonning ajralmas va uzviy huquqi hisoblanib, uni amalga oshirish muqarrar bo'lishi kerak. Bu borada muayyan ijtimoiy qiyinchiliklar sezadigan alohida toifadagi shaxslarning ta'lim olish ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ulardan foydalanish ta'limda inklyuzivlikni ta'minlashning eng muhim jihatidir. Inklyuziv ta'lim masalasining huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim olish huquqdir, bu huquqdan foydalanish esa muqarrar jarayondir. Umuman olganda ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash, ya'ni individual xususiyatlardan qat'i nazar insonlarda ta'lim olish ehtiyojini qondirish bo'yicha bir qator xalqaro huquqiy qadamlar tashlangan. Misol uchun 1994 yil iyun oyida bo'lib o'tgan maxsus ehtiyojlar uchun ta'lim bo'yicha Butunjahon konferentsiyasi butun dunyo bo'ylab inklyuziv ta'lim uchun turtki bo'ldi. Konferentsiya mahsuli bo'lgan Salamanka bayonoti va unga hamroh bo'lgan harakatlar asosi alohida ehtiyojli bolalarni ta'lim olishning kelajakdagi yo'nalishlari bo'yicha butun dunyo bo'ylab konsensusni ifodalaydi. Bayonotda har bir shaxs, individual farqlardan qat'i nazar, muntazam ta'lim tizimi doirasida ta'lim olish huquqi va alohida ta'limga muhtoj bolalarning samarali ta'lim olishlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan har qanday qo'shimcha yordam olish huquqi tasdiqlanadi. Hukumatlar va xalqaro hamjamiyat bir qator boshqa harakatlar qatorida inklyuziv ta'lim tamoyilini qabul qilishga chaqiriladi.²⁵ Salamanka bayonoti o'zida shuni ifodalaydiki, ta'lim subyekti sifatida har bir insonni doimiy ta'lim olishi uchun, ayniqsa, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan kishilar uchun zarur bo'lgan qo'shimcha qulayliklarni yaratish muntazamlik karakterini o'zida namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Salamanka bayonotining yana bir asosiy tavsiyasi bu global miqyosada xalqaro hamjamiyat va

²⁴ European Agency for Special Needs and Inclusive Education, 2014. Inclusive Education in Europe: Putting theory into practice. International Conference, 18 November 2013. Reflections from researchers. Odense, Denmark: European Agency for Special Needs and Inclusive Education

²⁵ <https://inclusiveschools.org/resources/international-resources/>

hukumatlarning inklyuziv ta'lim tamoyilini qabul qilish va bunga jiddiy e'tibor qaratishidir. Xalqaro miqyosda ko'plab tashkilotlar borligini inobatga olsak, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlarni yaratish va innovatsiyalarni joriy qilish potentsiali yuqori hisoblanadi. Biroq dunyoda rivojlanishdan ortda qolayotgan va turli sabablarga ko'ra notinch mamlakatlarda nafaqat inklyuziv ta'lim, balki ta'limning har qanday shakli ham muammoligicha qolmoqda. Bunday mamlakatalardan nafaqat xavfsizlikning ta'minlanmasligi, balki har qanday holatda ham hurmat qilinishi shart bo'lgan inson huquqlari, ular orasidagi eng muhimi bo'lgan ta'lim olish huquqi qo'pol ravishda buzilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada eng maqbul yechim bu raqamli inklyuziv ta'lim tizimini yaratish va keng ommalashtirish, shuningdek, xalqaro hamjamiyatni yuqoridagi mamlakatlar bilan inklyuziv ta'lim sohasidagi hamkorligini kuchaytirishdir. Salamanka bayonotining mantiqiy davomi bo'lgan Dakar Harakatlari haqiqiy inklyuziv ta'lim tushunchasining mazmun mohiyatida o'zida to'raligicha ifoda etadi. Ya'ni Dakar Harakatlar doirasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha bolalar, yoshlar va kattalar uchun sifatli asosiy ta'limni ta'minlash bo'yicha asosiy majburiyati bo'lgan "Barcha uchun ta'lim" tashabbusi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 2000-yil aprel oyida Senegalning Dakar shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon ta'lim forumi yig'ilishida Salamanka bayonotida belgilangan qarashlar yana bir bor tasdiqlandi. Dakar Harakatlar doirasi "Barcha uchun ta'lim" maqsadini o'z ichiga oladi va hukumatlarga 2015-yil yoki undan oldin barcha uchun sifatli asosiy ta'limga erishish majburiyatini oladi, ayniqsa qizlar ta'limiga e'tibor qaratadi va donor davlatlar va institutlarning "Hech bir mamlakat jiddiy majburiyatlarni bajarmaganligi haqidagi va'dasini o'z ichiga oladi. Resurs yetishmasligi tufayli asosiy ta'lim ushbu maqsadga erishishda to'sqinlik qiladi." Hujjat YuNESKOga BMTTD, UNFPA, UNICEF va Jahon banki o'rtasidagi hamkorlikni "Barcha uchun ta'lim" maqsadlariga erishish yo'lida muvofiqlashtirish majburiyatini yuklaydi.²⁶ Ushbu harakat doirasida belgilangan asosiy maqsad, ya'ni barcha uchun ta'lim bu inklyuziv ta'limni yana bir bor faqat imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilar uchun emas, balki mazmunan har bir insonga moslashtirilgan ta'lim ekanligi yana bir bor o'z isbotini topmoqda. Bu borada kuchliroq urg'u qaratilayotgan bolalar, yoshlar, ayniqsa, qizlar ta'limi kabi masalalar e'tiborga molikdir. Ma'lumki, ijtimoiy himoya toifasidagi qatlam bu insoniyat hamjamiyatining asosiy va ko'proq e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan qatlamdir. Shu nuqtai nazardan Salamanka bayonoti va Dakar harakatlari kabi ta'lim forumlarining tashkil etilishi va ta'limda inklyuziya masalasiga global miqyosda e'tibor berilishi muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir. Xalqaro miqyosda inklyuziv ta'limni ta'minlashning asosiy xalqaro huquqiy hujjatlardir bir bu "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi xalqaro konvensiyadir. Ushbu konvensiya doirasida nogironligi bor bo'lgan shaxslarning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlanganligini va eng muhimi xalqaro miqyosda tartibga solinganligini ko'rish mumkin. Xususan, imkoniyati cheklangan kishilarni boshqa kishilar bilan bir qatorda ta'lim olish masalalariga ham ayni konvensiyada to'xtalib o'tilgan. Yanada aniqroq qilib aytganda "Nogironlar

²⁶ <https://inclusiveschools.org/resources/international-resources/>

huquqlari to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaning 24-moddasiga ko'ra 24-modda 1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida o'qitilishlarini ta'minlaydi, bunda quyidagilarga intiladi: a) inson salohiyatini, shuningdek qadr-qimmat va o'zini hurmat qilish hissini to'la rivojlantirish hamda inson huquqlari, asosiy erkinliklari va insoniy turfa xillikni hurmat qilishni kuchaytirish;

b) nogironlarning shaxsi, iste'dodi va ijodini, shuningdek aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to'la hajmda rivojlantirish;

c) nogironlarga erkin jamiyat hayotida samarali ishtirok etish imkoniyatini yaratish.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni amalga oshirishda quyidagilarni ta'minlaydi:

a) nogironlar nogironligi sababiga ko'ra umumiy ta'lim tizimidan, nogiron bolalar esa bepul va majburiy boshlang'ich ta'lim yoki o'rta ta'lim tizimidan chiqarilmasligi;

b) nogironlar boshqalar bilan teng ravishda o'z yashash joylarida inklyuziv, sifatli va bepul boshlang'ich ta'lim va o'rta ta'limni olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

c) shaxsiy ehtiyojlarni hisobga oladigan oqilona moslashtirish ta'minlanishi;

d) nogironlar umumiy ta'lim tizimi doirasida samarali ta'lim olishlarini yengillashtirish uchun talab qilinadigan qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishi;

e) to'la qamrab olish maqsadiga muvofiq bilimlarni egallash va ijtimoiy rivojlanishga iloji boricha eng samarali yordam berish vaziyatida shaxsiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish bo'yicha samarali choralar ko'rilishi.

3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar ta'lim jarayonida hamda mahalliy hamjamiyatning a'zolari sifatida to'la va teng ishtirok etishlarini ta'minlash uchun ularga hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu yo'nalishda tegishli choralarni ko'radi, shu jumladan:

a) Brayl alifbosi, muqobil shriftlarni, muomalani kuchaytiradigan va muqobil usullar, vositalar va shakllarni, shuningdek mo'ljal olish va harakatlanish ko'nikmalarini egallashlariga hamda tengdoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishga va murabbiylikka ko'maklashadi;

b) ishorali tilni egallash va karlarning o'ziga xos tilini egallashga yordam beradi;c) shaxslarni o'qitish, jumladan ko'zi ojizlar, karlar yoki ko'zi ojiz va kar bo'lgan bolalarni o'qitish ularga eng maqbul bo'lgan til va usullarda, muomala vositalarida hamda bilimlarni egallash va ijtimoiy rivojlanishga iloji boricha eng ko'p yordam beradigan vaziyatda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquq amalga oshirilishini ta'minlashga ko'maklashish uchun ishorali tilni va/yoki Brayl alifbosini egallagan o'qituvchilar, shu jumladan nogiron o'qituvchilarni ishga jalb etish hamda ta'lim tizimining barcha darajalarida ishlayotgan mutaxassislar va personalni o'qitish uchun zarur choralarni ko'radi. Bunday o'qitish nogironlarni qo'llab-quvvatlash uchun nogironlik masalalari

hamda muomalaning kuchaytiradigan va muqobil usullari, vositalari va shakllarini, o'quv uslubiyotlari va materiallarini qamrab oladi.

5. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar kamsitilmasdan va boshqalar bilan teng ravishda oliy ta'lim, kasbiy ta'lim, kattalar uchun ta'lim olish va butun hayotlari davomida o'qitilish imkoniyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar shu maqsadlarda nogironlar uchun oqilona moslashtirishni ta'minlaydi.²⁷ Xalqaro miqyosda qabul qilingan ushbu konvensiya undagi barcha uchun ta'lim normalarining mustahkamlanishi yer sharining istalgan nuqtasida har bir inson bilim olish va shakllanish uchun zarur qulayliklarga ega bo'lishi ifodalaydi. Jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashayotgan O'zbekiston yuqoridagi konvensiyani ratifikatsiya qilish orqali inklyuziv ta'lim masalalariga oid xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va prinsiplarini milliy qonunchilik tizimiga keng implementatsiya qilmoqda. Shuni aytish kerakki, xalqaro huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni ratifikatsiya qilish bu jahon hamjamiyatining ajralmas bir qismi bo'lish va umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish va ularga amal qilish majburiyatidir. Xalqaro miqyosda global inklyuziv ta'limga erishish uchun butun dunyo birlashib, kurashishi kerak bo'ladi. Biroq bir tarafdin qaraganda butun dunyoning birlashib, kurashishi murakkab jarayondek ko'rinadi. Lekin jahondagi har bir mamlakat o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish orqali ko'zlangan natijaga erishish imkoniyatiga egadir. Ta'limda inklyuzivlikni ta'minlash bu inson huquqlarini ta'minlashning yuqori ko'rinishi sifatida qayd etish lozim. Chunki ta'lim olish bu insonning umri davomidagi uzviy huquqi va bu huquqdan har bir insonning foydalanishi nufuzli xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. Shuning uchun qaysi bir mamlakatda inklyuziv ta'lim ta'minlanmagan bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy, hatto, siyosiy sanksiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'limdagi inklyuziya bu global inklyuziyaning asosi va inson huquqlarining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Nazariy-huquqiy jihatdan qaraganda xalqaro miqyosda ta'limda inklyuzivlik ta'minlash bo'yicha bir qator ilmiy ishlar qilinganligini va xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini guvohi bo'lish mumkin. Eng asosiy vazifa esa bu inklyuziv ta'limni ta'minlash bo'yicha amaliy chora tadbirlarni amalga oshirish muhim sanaladi. Chunki har qancha nazariyalar yaratilmasin, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yuridik hujjatlarda ta'lim olish huquqi mustahkamlangan bo'lmasa, amaliy jihatdan ijro qilinmaganicha ta'limda inklyuzivlik bilan bog'liq muammolar muammoligicha qolaverdi. Shuning uchun inklyuziv ta'limni ta'minlash va rivojlantirish uchun nafaqat xalqaro tuzilmalar va hukumatlar, balki institutlar faoliyatini ham faol yo'lga qo'yish va bu masalaga har bir insonda daxldorlik xissini uyg'otish lozim sanaladi. Bu borada xalqaro va davlat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi asosida ta'lim uchun global kompaniya faoliyati muhimdir.

Global Ta'lim Kampaniyasi (GCE) - global ta'lim inqirozini tugatishga qaratilgan fuqarolik jamiyati harakatidir. Global Ta'lim Kampaniyasi (GCE) missiyasi

²⁷ O'zbekiston Respublikasi uchun 2021-yil 28-iyuldan kuchga kirgan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya. (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr)

hukumatlarning har bir qiz, o'g'il, ayol va erkakning bepul sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash uchun hozir harakat qilishiga ishonch hosil qilishdir. Faoliyati davomida GCE kompaniyalari barcha sektorlar bosimini safarbar qiladi va hukumatlar va xalqaro institutlarni javobgarlikka tortadi. GCE homiylik qiladigan tadbirlardan ba'zilari: Global harakatlar haftaligi (Global Action Week), Yil bo'yi kompaniya va Global targ'ibot. Inklyuziv ta'limni ta'minlashga qaratilgan Global ta'lim kompaniyasi o'z faoliyati davomida har bir insonning ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratib ta'lim berishni ta'minlash funksiyalarini bajaradigan hukumatlarni jamiyat va fuqarolar oldida boshqachoroq qilib aytganda ta'lim oluvchilar oldidagi majburiyatini bajarishga chaqiradi. Va bu borada Global ta'lim kompaniyasining o'tkazadigan turli tadbirlari ham inklyuzivlikka targ'ib qilish bilan ajralib turadi.

Xalqaro miqyosdagi yana bir tashkilot bu Mobility International AQSh bo'lib yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'z yo'nalishlari doirasida nogironligi bor shaxslarni ta'lim orqali rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligini ko'rish mumkin. Bunda ushbu tashkilotning asosiy e'tibori inson huquqlari masalasiga qaratilgandir. Ya'ni insonning shakllanishi va rivojlanishiga doir xalqaro almashinuvlar dasturlarini amalga oshiradi. Mobility International USA (MIUSA) missiyasi butun dunyo bo'ylab nogironligi bor shaxslarga xalqaro almashinuv va xalqaro rivojlanish orqali inson huquqlariga erishish imkoniyatini berishdir. MIUSA xalqaro dastur va xizmatlarni taqdim etish uchun to'rtta asosiy yo'nalishda ishlaydi, jumladan: nogironlik va almashinuv bo'yicha milliy hisob-kitob markazi, Xalqaro rivojlanish va nogironlik, MIUSA xalqaro almashinuv dasturlari va ayollar, nogironlik va rivojlanish. Inklyuzion Yevropa Yevropa Komissiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va butun Yevropa bo'ylab aqliy nogironligi bo'lgan shaxslar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Tashkilot 3 yo'nalishda ishlaydi: axborot almashish, a'zolari qo'llab-quvvatlash va ta'lim siyosatini amalga oshirishda inklyuzivlikni ta'minlash. Ularning tadbirlari, nashrlari va 23 tilda onlayn resurslari mavjud.

Xalqaro inklyuzivlik butun dunyo bo'ylab aqliy nogironligi bo'lgan odamlar va ularning oilalari huquqlarini himoya qiluvchi oilaviy tashkilotlarning global federatsiyasidir. Sayt mazmuni ingliz, ispan va frantsuz tillarida mavjud. II va uning a'zolari nogironlar va ularning oilalari huquqlari, inklyuziv ta'lim, qashshoqlikni kamaytirish, o'z-o'zini himoya qilish va boshqalarga e'tibor qaratadi.

Xalqaro tarmoq ta'limi (Enabling Education Network) (EENET) Buyuk Britaniyada joylashgan, inklyuziv ta'lim masalasi bo'yicha axborot almashish tarmog'idir. Tarmoq xalqaro hamjamiyat uchun ochiq. Tarmoqning maqsadi ma'lumot almashish va ta'limga inklyuzivlik va huquqlar haqida suhbat va munozaralarni rag'batlantirishdan iborat. EENET asosiy ma'lumotlar va resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan mamlakatlar, tashkilotlar va shaxslarning ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yishga intiladi.

Torontoda (Kanada) joylashgan Inclusion.com Inclusion Press, Inclusion Network va Marsha Forest Centerdan iborat. Inclusion.com milliy va xalqaro miqyosda o'quv tadbirlari, davlat maktablari, o'rta maktablar, jamoat kollejlari, universitetlar,

odamlarga xizmat ko'rsatish agentliklari, sog'liqni saqlash tashkilotlari, davlat idoralari, oilalar va Birinchi Millatlar tashkilotlari uchun resurs materiallarini yaratadi. Xalqaro nogironlar alyansi (IDA) butun dunyo bo'ylab 600 milliondan ortiq nogironlarni ifodalaydi. Alyans quyidagi sakkizta xalqaro tashkilotni o'z ichiga oladi: Inklyuzion xalqaro, Eshituvchi zaif odamlar xalqaro federatsiyasi, Butunjahon ko'rlar ittifoqi, nogironlar xalqaro, Rehabilitatsiya xalqaro, Butunjahon karlar federatsiyasi, Butunjahon karlar federatsiyasi, Butunjahon foydalanuvchilar tarmog'i va psixiatriyadan omon qolganlar. Alyans xalqaro nogironlar harakatining global siyosat masalalarida va xalqaro nogironlik tashkilotlari o'rtasida hamkorlik va ma'lumot almashinuvini osonlashtirishda vakili sifatida ishlaydi. Ochiq jamiyat institutining (OSI) maqsadi demokratik boshqaruvni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini shakllantirish; inson huquqlari; iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlar. OSI Ta'limni qo'llab-quvvatlash dasturining vazifasi targ'ibot, innovatsiya va faollikni kuchaytirishga qaratilgan ta'limda adolatni ta'minlashdan iborat. OSI, jamiyatning, ayniqsa, himoyaga muhtoj bolalar uchun sifatli ta'lim berish uchun o'z resurslarini qanday tashkil etishi, demokratiya va ochiq jamiyatning asosiy belgisidir, deb hisoblaydi.

Jahon bankining strategik yo'nalishi mamlakatlarga ta'limni milliy iqtisodiy strategiyalarga integratsiyalash va milliy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga javob beradigan yaxlit ta'lim tizimini rivojlantirishga yordam berishdan iborat. Ular "Ta'lim hamma uchun" xalqaro harakatining hamkori hisoblanadi. Ushbu veb-sayt "Inklyuziv ta'lim: Nogiron va maxsus ta'limga muhtoj bo'lganlarni qo'shish orqali EFaga erishish" asosiy nashrini o'z ichiga oladi.²⁸

Shuningdek, Inklyuziya Yevropa, Xalqaro Inklyuzivlik va Jahon Banki singari xalqaro institutlar keng miqyosda inklyuziv ta'limni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha amaliy chora tadbirlar dasturini yaratishib jahon bo'ylab faoliyat ko'rsatishadi. Ushbu faoliyatning yanada kengayishi va mazmungan boyishida yuqorida keltirib o'tilgan xalqaro institutlar soni oshishi va sifat ko'rsatkichlari yanada yaxshilanib borishi lozim. Umuman olganda, jahon amaliyotida xorijiy tajribalar va undagi zamonaviy tendensiyalari inklyuziv ta'limning yangi qiyofasini yaratishga va uning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Butun dunyoda inklyuziv ta'limga ehtiyoj yuqoriligini hisobga olsak, ta'limda inklyuzivlik masalasi bu inson huquqlari masalasi ekanligi yana bir bor o'z isbotini topadi. Shu maqsadda qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar xususan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida" har bir insonning ta'lim olish, shuningdek, "Nogironligi bor shaxslarning huquqlari to'g'risidagi" xalqlar konvensiyasida mustahkamlangan ta'limga doir normalar bu ta'limda inklyuzivlikni ta'minlashning xalqaro huquqiy asoslarini ko'rsatadi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim masalasiga Yevropa va Amerika hamjamiyatining yuqori e'tibor qaratayotganligini yuqorida tahlil qilingan xalqaro institutlar faoliyatidan ham ko'rish mumkin. Bunday harakatlarni Osiyo, Afrika va boshqa mamlakatlarda ham jadallik bilan olib borish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro miqyosda ta'limda obro qozongan Finlandiya, Singapur,

²⁸ <https://inclusiveschools.org/resource/international-organizations-supporting-inclusive-education/>

Amerika Qo'shma Shtatlar, Buyuk Britaniya va yana boshqa ayrim Yevropa mamlakatlari inklyuziv ta'lim sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqishi va xalqaro grand dasturlari doirasida maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan shaxslarni ushbu mamlakatlarning ta'lim muassasalarida o'qitish xalqaro inklyuziv ta'lim jozibadorligi va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga zamin yaratadi. Bunda ayniqsa imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarni rivojlanishi va jamiyatdagi ro'li oshishiga ijobiy turtki bo'ladi.